

JADIDLARNING TARIXIY-MA'RIFIY VA MADANIY QARASHLARI

Bahromova Malikabonu Alisher qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning tarixiy-ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy qarashlari tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida o'rganilgan. Ma'rifatparvarlarning ta'lim tizimini isloh qilish va ommaga keng yoyishga oid qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadidchilik, ma'rifat, taraqqiyparvar, yangi usul maktablari, teatr, maorif, islohot, ijtimoiy hayot, oila.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o'lka xalqlarining mustamlakachi siyosatiga qarshi kurash jarayonlarini kuchaytirib bordi. Natijada mahalliy xalq ichidan yetishib chiqqan jadidlar bu kurashga ma'rifat bilan erishishga intilgan edi. Turkiston xalqlari tarixida eng katta o'rin tutgan jadidchilik harakati tarixiy jihatdan serqirra va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ular turli mamlakatlar tajribasidan namuna olib, uni milliyalashtirib, xalqqa oson o'zi tushunadigan qilib yetkazib berishga harakat qildilar. San'at, teatr, maktablar, darsliklar, gazeta va jurnallar orqali mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu yo'nalishda shakllanib bordi. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Turkiston zaminidagi eng ilg'or fikrli ziyolilar ongida paydo bo'lgan milliy uyg'onish ma'rifatchilikda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda yerli xalqning madaniy-ma'rifiy hayotida shu qadar ko'p o'zgarishlar yuz berdiki, uni hech mubolag'asiz Renessans, ya'ni uyg'onish hodisasigagina qiyoslash mumkin. „Madaniy ma'rifiy islohotlarning ibtidosida, albatta, maktab, maorif ishlari turadi. Shu kezlari Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab „usuli jadid“ maktablari ochildi. Uning tashkilotchilari tatar ma'rifatparvarlari bilan birga, yerli ziyolilardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiq Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Sadriddin Ayniy, Abduvahob Ibodiy, Saidrizo Alizoda kabi o'nlab atoqli zotlar bo'ldi. Yangi usul maktablar Turkistonda jadid ma'rifatchiligining ilk ko'rinishi bo'lishi bilan birga, to mazkur harakat sof siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi”.¹⁹

Ma'lumki, Turkistonda vujudga kelgan dastlabki jadid maktablarining vujudga kelishi qrimlik ma'rifatparvar adabiyotshunos, jadid maktablarining ilk asoschisi, tirikligidayoq millatning otasi deb nom olgan Ismoil Gaspirali nomi bilan bog'liq. B. Qosimov Gaspiralinig jadid maktabini yaratishdagi faoliyati haqida shunday yozadi: „Ayni paytda u

¹⁹ Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyyot uchun kurash. T.; „Universitet“ 1999, 118-b

an'anaviy sharqona tahsilning zamondan orqada qolganini ", shu tufayli musulmonlarimiz jahon taraqqiyotidan chetga surilib chiqayotganligini ko'radi... Milyutin gimnaziya-dagi o'qitish usulini, Sarbonnadagi ko'rganlarini musulmon maktablariga ko'chirsa bo'lmasmikan? Har bir maktab, madrasa o'z nizom-dasturiga ega bo'lmog'i lozim. Diniy bilimlar qatorida dunyoviy fanlar ham keng o'qitilishi kerak..." degan fikrga kelgan. I Gaspirali chizgan loyihaga asoslangan yangi usul maktablari tez orada xalq orasida tanildi".²⁰

Maktab ta'lim tizimi islohotining zarurligini izohlarkan, Munavvarqori: „... ongda, fikrlashda, maorifda o'zgarish qilmay turib, siyosatda o'zgarish qilib bo'lmadi. Dushmanni yengish, o'zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma'rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi. Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqilob yasamay turib erishish mumkin emasdi“,²¹ deya xotirlaydi

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy „Oyna“ jurnalida quyidagicha yozgan: „To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiyaga dorilfunun va durulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy , dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining „Jamiyati Xayriya“ nomli yordam tashkiloti „ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi“. ²²

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini , jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek , „Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi

²⁰ B. Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - T.: „Ma'naviyat“ 2002. 164-bet

²¹ M. Abdurashidxonov Tanlangan asarlar - T: „Ma'naviyat“ 2003 15-bet

²² M. Abdurashidxonov Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) Sharq-2001 108-109-b

manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi“.²³

„Keraklicha din ilmini o‘qish hammaga farz bo‘lganidek, o‘z hukumatini, Vatanini va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o‘qib bilishlik ham farzdir“²⁴ - deb yozgan edi keyinchalik A. Sog‘uniy o‘zining „Turkiston qayg‘usi“ asarida.

Maktab- maorif bilan bir qatorda, jadid ma‘rifatchiligining yana bir yorqin ifodasi turli ma‘rifiy jamiyatlar va teatr bo‘ldi. „Teatr jadidlar nazdida, avvalo, „ulug‘lar maktabi“ , „ibratxona“ bo‘lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma‘rifat, ilm olmoq g‘oyasini targ‘ib etishi ko‘zda tutilgan edi. Ikkinchidan esa ma‘rifiy va ko‘ngilochar tomoshalar orqali mablag‘ topib, maorif, matbuot ehtiyojlariga sarflamoq ko‘zlangan edi. Turkistonga tatar, ozarbayjon, rus teatri jamoalarining kirib kelishi ovro‘pacha o‘zbek milliy teatri san‘atining tug‘ilishiga turtki berdi“.²⁵

„Jadid teatrining manbalari haqida so‘z borganda, odatda ozarbayjon va tatar teatrlarining Toshkentga va Turkistonning boshqa yirik shaharlariga gastrolga kelgan rus teatrlari ta‘siri tilga olinadi. To‘g‘ri, Turkiston Rossiya qo‘shinlari tomonidan zabt etilganidan so‘ng, 1877-yildan boshlab Turkistonga rus antrepenerlarining drama truppalari, Pererburgdagi Marinsk teatrining artistlari gastrolga kelib, o‘z spektakllarini namoyish etishgan. Qolaversa, 1914-yilda nafaqat Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan singari shaharlarda milliy teatr beshigiga tosh otgan ommaning, balki aksar mahalliy ziyolilarning ham yangi shahardagi rus teatrlari spektakllarini borib ko‘rishlari uchun tarixiy va madaniy sharoit yetilmagan edi“.²⁶

San‘atshunoslik fanlari doktori Muxsin Qodirovning yozishicha, O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrining „chodir hayol“ , „chodir jamol“ , „fanus hayol“ turlari faoliyat ko‘rsatib kelgan.²⁷

1916-yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida „Taraqqiyparvar“ jamiyati tuzildi. Bu davrda o‘lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo‘lib, ular o‘z yig‘ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarda ma‘rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko‘tarib chiqqan boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev rahbarligida tuzilgan edi. „Taraqqiyparvar“ jamiyati safida mahalliy millat vakillaridan tashqari Chaykin, Shapiro va Okun kabi shaxslar ham bo‘lib, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyishtirilgan edi. Andijonlik taraqqiyparvarlar

²³ Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T: O‘zbekiston. 1999,385-b

²⁴ A. Sog‘uniy. „Turkiston qayg‘usi“ - T.: „Sharq“ 2003. 51-b

²⁵ Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.; „Universitet“ 1999, 119-b

²⁶ Jadid ma‘rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. „Toshkent Islom universiteti“ nashriyoti matbaa birlashmasi. T.: 2016, 126-b

²⁷ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-jild T., 2005. 344-b

tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning „Padarkush“ pyesasi ham sahnaga qo‘yilgan. Pyesa yangi usul maktablarining o‘qituvchilari, teatr havaskorlari tomonidan sahnada ijro etilgan.²⁸

Turkistonning asr boshlari matbuotida Ovro‘pocha teatr san'atining turi bizda, 1913-yil rasman shakllanmasidan biroz ilgariroq boshlanganiga oid dalillar uchraydi. O‘zbek yangi teatri tarixini maxsus o‘rgangan B. O Pestovskiy „Inqilob“ jurnalining bir necha sonlarida e‘lon qilingan katta maqolasida „Qorako‘l“ shahriga yaqin bir qishloqqa 1909-yilda „o‘zbek teatri o‘ynaldi“ degan, xabar borganligini qayd etgan edi. „Turkiston viloyatining gazetasi“ 1910-yil yanvar sonlaridan birida esa „tez fursatda Toshkent shahrida teatr, ya‘ni „muqallid“ o‘yini o‘ynalaturg‘on musulmon jamiyati (truppa) ochilur emish... Ul jamiyat musulmon zamonida „muqallid“ o‘ynar ekanlar“, degan xabar bosiladi. Bu xabardan besh-olti kun o‘tib, yana shu gazetada yerli tatar havaskorlari doimiy teatr truppasi tuzgani haqida ham kichik axborot berilgan. Balki avvalgi xabarda „musulmon jamiyati“ deganda mazkur tatar havaskorlari nazarda tutilgandir? Ammo bundan qat‘iy nazar o‘sha jamiyat spektakllari bevosita mahalliy ziyolilar ishtirokida o‘tgan. Agar „Oyna“ jurnalidagi „Doxiliya xabarlari“ deb nomlangan ruknni ko‘zdan kechirsak, teatr yo konsert tomoshalari haqidagi xabarlarda, mahalliy havaskorlar tatar teatrchilari bilan hamkorlikda spektakllar qo‘ygani, aksariyat, milliy pyesalardan so‘ng tatar pyesalari o‘ynalgani, har bir spektaklda tatar va o‘zbek aktyorlarining birgalashib ishtirok etganidan ogoh bo‘lamiz.²⁹

Umuman, teatr masalasiga e‘tabor 10-yillardan juda kuchli bo‘lgan. Chor hukumatining Turkiston o‘lkasidagi rasmiy nashri afkori hisoblangan „Turkiston viloyatining gazetasi“dan tortib, „Sadoyi Turkiston“, „Sadoyi Farg‘ona“ gazetalari, „Oyna“ jurnali 1913-yilgi 8-sonida „Ovro‘poda teatru“ nomli maqola e‘lon qilib, unda G‘arbdagi yirik mamlakatlar teatrlari, ularning miqdori haqida batafsil ma‘lumotlar beradi. Madaniy taraqqiyoti yuksak bo‘lgan Angliya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda yuzlab teatr tomoshaxonalari borligi, bular yonida endilikda sinematug‘rofning ham paydo bo‘lib, rivojlanayotgani aytiladi. Bunday maqolalar mahalliy ziyolilarni teatrchilik harakatiga la‘nat qilsa, avomni shunday madaniyat o‘choqlaridan baxramand bo‘lishga targ‘ib etar edi.³⁰

„Jadidlar kishilik jamiyatining taraqqiyoti turli ijtimoiy omillarga bog‘liq deb hisoblardilar. Ana shu omillar orasida oila va uning muayyan jamiyatdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Jadid matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning „Oyina“ sida oila masalalari hamisha diqqat markazida bo‘ldi. Masalaning yana bir tomoni borki, Fitratning

²⁸ Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. „Toshkent Islom universiteti“ nashriyoti matbaa birlashmasi. T.: 2016, 51-b

²⁹ Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.; „Universitet“ 1999, 119-b

³⁰ Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.; „Universitet“ 1999, 120-b

1914-yili yozilib 1915-yili nashr etilgan „Oila“ kitobi jadid ma'rifatparvarlarining bu borada e'lon qilingan asarlarining ma'lum darajada mantiqiy yakuni sifatida yaratilgan. Shuning uchun ham bu kitobda jadidchilik namoyondalarining oilaga oid huquqiy qarashlari o'z aksini to'la topgan deyishimiz mumkin.³¹

Shubhasiz, Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminida Qur'onda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar yotadi. Shuning uchun ham bu kitob o'z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan va uzoq vaqt qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Jadidlarning fikri bo'yicha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasiga, taqdiriga bog'liq. Bu g'oya Fitrat asarida o'z ifodasini topgan: „Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi“ deb yozadi u.³²

Hayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning ham kuch-qudrati va sha'n-shavkatini belgilovchi omildir. "Masalan, deb yozadi u, belgiyaliklar va inglizlarni olaylik. Har ikkala millat a'zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko'z oldimizga ularni keltirib muhokama qilsak, ko'ramizki, ingliz millati Belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkat-u e'tiborga egadir. Qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o'rtasida ilm-u amal va sa'y-harakatda farq yo'q. Unda shavkat-u shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo'ladi, ya'ni ingliz millatining aholisi 44 mln. va belgiyaliklar esa 7,5 mln. ga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyaliklarning sa'y va harakatlaridan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzat, e'tibori ham ana shu sa'y va amallarning natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovro'pa hukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. Ovrupo olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa: "Ey! Mamlakatimizning sharafi va e'tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringlar", deya dod soladi"³³

Fitrat o'z asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqid qilib, ulardan qutulish yo'llarini ko'rsatdi. Uning "Munozara" asarida Buxoroda faoliyat ko'rsatgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari o'z ifodasini topgan edi. Bu haqida Fitrat

³¹ Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. Toshkent „O'qituvchi“ 2002. 113-b¹⁴ A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T. „Ma'naviyat“ 2000. 4-b

³² A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T. „Ma'naviyat“ 2000. 4-b

³³ Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. T. „O'qituvchi“ 2002. 116-b

ijodining tadqiqotchisi yaponiyalik X. Komatsu shunday degan edi: "1911-yilda Istanbulga o‘qishga borgan yosh buxorolik jadid Abdurauf Fitrat „Munozara“ nomli forsha adabiy asar yozdi. Bu asar o‘sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o‘rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo‘yish uchun yozilgan edi: asar faqat Buxorodagina emas, balki butun Turkistondagi jadidlar harakatiga ruh va kuch berishi bilan mashhur bo‘ldi.³⁴

Xulosa qilib aytganda, ma‘rifatparvarlar ilm ziyosini xalq orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr orqali o‘z g‘oyalarini targ‘ib qildilar. Jadidlarning tarixiy-ma‘rifiy qarashlari va g‘oyalarini amalga oshirish haqidagi faoliyati bugungi kun uchun ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.; „Universitet“ 1999,
2. B. Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. - T.: „Ma‘naviyat“ 2002.
3. M. Abdurashidxonov Tanlangan asarlar - T.: „Ma‘naviyat“ 2003
4. M. Abdurashidxonov Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) Sharq-2001
5. Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T: O‘zbekiston. 1999
6. A. Sog‘unij. „Turkiston qayg‘usi“ - T.: „Sharq“ 2003.
7. Jadid ma‘rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. „Toshkent Islom universiteti“ nashriyoti matbaa birlashmasi. T.: 2016,
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-jild T., 2005. 344-b
9. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. T. „O‘qituvchi“ 2002.
10. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T. „Ma‘naviyat“ 2000. 4-b
11. Jamolova D. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati. (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) Toshkent-2021.

³⁴ Jamolova D. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati. (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) Toshkent-2021. 88-b